

O'LAT KASLLIGI TARIXI

G'anijonov Eldorbek Egamberdi o'g'li

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti Namangan filiali

Davolash ishi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola o'lat kasalligi haqida. Kasallikni kelib chiqishi va kasallikni paydo bolish omillari hamda uni organgan olimlar va olimlarni izlanishlari hamda kasalil togrisidagi mulohazalari yoritib berilgan. Bu kasallikning birinchi qayerda paydo bo'lgani va uning klinikasi xaqida keltirib o'tilgan. Qolaversa bu kasallikdan saqlanish va uning davo chorlari xaqida aytib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Vaksina, Epidemiya, Mogshmgiz.*

Аннотация: *В статье рассматривается чума. Обсуждается происхождение заболевания и факторы, его вызвавшие, а также исследования учёных, создавших его, и их взгляды на болезнь. Упоминаются места первого появления этой болезни и её клинические особенности. Кроме того, рассматриваются меры профилактики и лечения этой болезни.*

Ключевые слова: *Вакцина, Эпидемия, Могшмгиз.*

Abstract: *This article is about the plague. The origin of the disease and the factors that caused it, as well as the research of the scientists who created it and their opinions about the disease are discussed. Where this disease first appeared and its clinical features are mentioned. In addition, measures to prevent this disease and its treatment are mentioned.*

Keywords: *Vaccine, Epidemic, Mogshmgiz.*

O'lat, ushbu kassalikni bazi adabiyotlarda Toun dep nomlanadi — odam va hayvonlarning o'tkir yuqumli karantin kasalligi hisoblanadi. Ushbu kasallik qadimdan XI asr taxminan 1020 yillarda Ibn Sino tomonidan o'z asari yani “Al qonun fi't -tibb” da o'latni yuqumli kasallik dep birinchi bolib ilmiy izlanish olib borgan, hamda bu kasallik havodan yuqishini va karantin zarurligini takitlagan. (Ibn Sino kasallik paytida aholining bir joydan boshqa joyga ko'chmasligini yozgan hamda bu dunyo tarixidagi eng qadimiy karantin tavsiyalaridan biri). keyinchalik olim Gerolamo Frakastoro (1478-1553) 1546-yillarda o'latni mikroskopda ko'rinsa-da hali, topilmagan “mayda arrachalar”(kontagionlar) orqali yuqadi degan nazaryani ilgari surgan. Bu olim



“De Contagione” asarids o’latni sichqonlar bilan bog’lagan ilk olim hisoblanadi. Odamda umumiy ahvolning og’irlashishi, intoksikatsiya, tana haroratining ko’tarilishi, limfa bezlari, o’pka va boshqalar a’zolarida yallig’lanish, sepsis rivojlanishi bilan namoyon boladi. Kasallik tez tarqalishi va ko’plab bemorlar nobud bo’lishi tufayli o’lat o’ta xavfli yuqumli kasalliklar sinfiga kiritiladi. O’lat qadimdan ma’lum, uning epidemiyalari tez-tez uchrab turgan va ko’plab kishilarning o’limiga sabab bo’lgan. O’lat epidemiyalari tufayli ayrim hududlar butunlay bo’shab qolgan. Undan qutulish maqsadida boshqa joyga qochib ketgan odamlar yangi maskanda o’lat epidemiyasi tarqalishiga sabab bo’lganlar. Qo’zg’atuvchisi toun mikrobi — mayda tuxumsimon, harakatsiz. Tanasi yupqa parda bilan o’ralgan, u oddiy ozuqa muhitlarida, ayniqsa qon qo’shilgan muhitlarda yaxshi o’sadi. Ekzo va endotoksin ajratadi, tashqi muhitga va quritishga chidamli, tuproqda 7 oy, kiyimkechakda 5-6 oygacha tirik saqlanadi. O’lat mikrobi organizmga teri, shilliq qavatlar, yuqori nafas yo’llari va hokazo a’zolaridan kirishi mumkin.

Kemiruvchilar (yumronqoziq, qum sichqonlar, dala sichqonlari va aholi yashaydigan joylardagi kalamushlar), tuyalar, shuningdek, o’latning o’pka turi bilan og’rigan bemorlar kasallik qo’zg’atuvchilarining manbai hisoblanadi. O’lat mikrobi hayvondan odamga va odamdan odamga transmissiv yo’l bilan (masalan, burqa chaqqanda), ba’zan kasal hayvon go’shtini nimtalaganda, shuningdek, ovqatga yaxshi tekshirilmagan go’sht ishlatilganda yuqadi. O’latning o’pka turi bilan og’rigan bemor sog’lom kishilar uchun ayniqsa xavfli, chunki u gaplashganida, aksirganida havoga o’lat tayoqchalarini tarqatadi. Inkubatsion davri bir necha soatdan 3-6 kungacha. Kasallik o’tkir boshlanadi, bemorning eti uvishib, boshi qattiq og’riydi, ko’pincha ko’ngli ayniydi, qayt qiladi, uyqusizlikdan qiynaladi, alahlaydi. O’latning o’pka turida o’pkaning yallig’lanishi (o’latli zotiljam) kuzatiladi, bu yo’tal, qon aralash balg’am ajralishi, havo yetishmasligi bilan davom etadi. O’pkaning teribubon shaklida infeksiya kirgan joy bo’rtib, qon aralash suyuqlik tutgan pufakcha hosil bo’ladi, u keyinchalik so’rilib ketadi, shu sohaga yaqin limfa tugunlari shishadi (ya’ni bubon hosil bo’ladi). Ichak shakli kuchli ich ketishi, ba’zan axlatda qon va shilliq bo’lishi bilan kechadi. Septik shakli terida, shilliq pardalarda va turli a’zolarida qon quyilishi bilan ajralib turadi, bu odatda, og’irroq kechib ko’pincha o’lim bilan tugaydi.

Oldini olish

Kasallik aniqlangan joyda karantin e’lon qilinadi. Zarurat tug’ilganda u yerda yashaydigan aholi o’lat vaksinasi bilan emlanadi. Tabiiy o’choqda muntazam epizootik tekshiruvlar o’tkazish, aholi va hayvonlarni nazorat qilish, tirik vaksina bilan emlash, dala va turar joylarda kemiruvchilar, burgalarni



qirish va boshqalar tadbirlardan iborat. Bemor bilan muloqotda bo'lganlar va tibbiy xodimlar kasallik o'chog'i tugatilgandan so'ng 6 kun davomida tibbiy kuzatuv ostida bo'ladilar. Davolashda antibiotiklar qo'llanadi. Hozirgi vaqtda vaksinalardan foydalanish, kemiruvchilar va burgalarga qarshi kurash olib borish natijasida bu kasallik uncha xavf tug'dirmaydi. O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligiga qarashli O'lat (toun)ga qarshi stansiya har yili bahor yoz mavsumida kasallikning tabiiy o'choqlarida epizootiya oldini oladigan tadbirlar va laboratoriya tekshiruvlari olib boradi.

Chorva mollarining o'lati qishloq xo'jaligi hayvonlarining eng xavfli yuqumli kasalliklaridan. Har xil taksonomik guruhlariga mansub maxsus viruslar (qoramol, cho'chqa, otlar o'lati, etxo'r parrandalar — qushlar o'lati viruslari), MogShmgiz turkumiga kiruvchi viruslar yoki o'lat bakteriyasi qo'zg'atadi (tuyalar o'lati). Yuqori harorat, shilliq qavatlar, asosan, oshqozonichak yo'llari yallig'lanishi bilan tavsiflanadi. Kasallik manbai kasal hayvon. O'lat bilan kasallangan hayvon sog' hayvon bilan birga boqilganda, kamdan kam zararlangan yem orqali yuqadi. Tashxis laboratoriya tekshiruvlari asosida qo'yiladi.

Ushbu kassalikni davolash usullari XVIII-XIX asr oralarida oylab topilgan misol to'g'risida aytish mumknki olim Waldemar Haffkine(1860-1930) ushbu kasallik uchun dunyoda birinchi o'lat vaksinasini yaratdi. Hamda bu vaksinani ozida sinab kordi va Hindistonda millionlab odamlarni emlab davolagan va yetarli muvofaqiyatga erishgan. Keyinchalik Frederick Loe(1870-1939) o'lat bakteryasining hujayra devori, antigen tuzilishi, hamda toksinlarini 1906-1910-yillarda tadqiq etgan.

Oldini olish: kasallik tarqalgan qo'shni mamlakat chegarasida immun zonani tashkil qilish; kasallik paydo bo'lganda karantin tadbirlari; kasal mollarni so'yish va go'shtini yoqib yuborish; qolganlarini emlash va sanitariyaveterinariya choratadbirlari o'tkazishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBlat>
2. <https://mymedic.uz/kasalliklar/infektsion/olat/>
3. <https://avitsenna.uz/olat-kasalligi>

